

O‘QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

Shodiyeva Xilola Murodullayevna,

Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish muammosi, ularni bartaraf etish yo‘llari va o‘quvchilarda kreativ yondashuvni rivojlantirish haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ tafakkur, ma’naviy meros, ajdodlar tajribasi, ilmiy dunyoqarash, islohatchi pedagog, yosh kitobxon avlod.

Аннотация. В данной статье представлены аналитические сведения о проблеме формирования творческого мышления студентов, путях их преодоления и развитии творческого подхода студентов.

Ключевые слова: творческое мышление, духовное наследие, опыт предков, научное мировоззрение, педагог-реформатор, молодое читающее поколение.

Ma’lumki, “tafakkur” mafkura so‘zining arabchadagi “fa – ka – ra ” (afkor) so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘ylamoq, fikrlamoq” degan mazmunni ifodalasa, “kreativ” so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, “ijodiy” tom ma’noda esa “yangi ijod, ijodiy yaratish” singari ma’nolarni ham anglatadi. Bu tushunchalar uyg‘unlashtirilgan holatda quyidagi ta’rifni keltirib chiqaradi: Kreativ tafakkur – aqlning peshqadamligi, tezlikda qarorlar qabul qilish va bundan cho‘chimaslik, ish vazifasi va sohasiga sodiqlik, tafakkurning moslashuvchanligi, egiluvchanligi, noanaviyligi, no-standart qarorlar va yechimlar qabul qilishdan hayiqmaslik. Ong, tafakkur va aqlni barcha yo‘nalishlarda istiqbolini ko‘rish va anglashga o‘rgatish, pragnoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirilishiga bog‘liq jarayondir. Shuningdek, kreativ tafakkur – fikrlashtezligi, mustaqil qarorlar qabul qilish, o‘z imkoniyatlariga ishonch, bir- biridan uzoq fikrlarni o‘zaro bog‘lay olish va tasavvur kengligi singari xususiyatlarda ham o‘z ifodasini topadi. Kelajagimiz poydevorining mustahkam ustuni sanalgan yoshlarimiz yuqoridagi kabi fazilatlarga ega bo‘lishlari bilan vatan taraqqiyotiga tamal toshini qo‘ygan bo‘ladilar.

Biznes taraqqiyotida va boshqa sohalarda taraqqiyot takomili o‘sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo‘tadil saqlanishlarning ongli tabiati va eng muhimi doimiy tarbiyalanish va shakllantirishni talab etadigan qurol hisoblanadi. Mazkur tafakkur quroli – inson ma’naviyati, tabiati, bilimi, aqliy salohiyati shuningdek, mana shu juda katta bazani ishlata olish qobiliyatini ham o‘zichiga oladi.

Kreativ (ijodiy) tafakkur insonga xos eng muhim xususiyatlardan biri. Bu xususiyatdan maxrum bo‘lgan inson bamisoli hamma ishni ko‘r – ko‘rona bajaradigan qulga aylanib qoladi. Mutafakkir so‘zining o‘zagi ham fikrdir. Lekin, fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlarning hammasini ham mutafakkir deb bo‘lmaydi. Yuksak, teran va qudratli tafakkur sohibi bo‘lib, milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ijodkorlar, allomalar va aziz avliyolar mutafakkir deb atashga munosibdir.

Ma‘naviy meros ajdodlar tajribasi, qoldirilgan ma‘naviy boylıklarining kelgusi avlodlarning amaliy faoliyati, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko‘ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millatvakillariga tegishli bo‘lishi mumkin. Ular ma‘lum milliy tildaa yaratilgani, milliy, madaniy – ma‘naviy an‘analar, qarashlarni aks ettirishiga ko‘ra millatga, ma‘lum bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi davlat hokimiyati amal qilib turgan davrda yaratilganiga ko‘ra davlatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o‘rniga ko‘ra sivilizatsiyaga xos bo‘lishi ham mumkin.

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli – tuman qarash va ta‘riflar mavjuddir. Ularni ayrimlariga xarakteristika berib o‘tamiz. S.L.Rubinnggeyn nazariyasiga binoan, tafakkuri psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmeti – jarayon, faoliyat tariqasiga namoyon bo‘lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda – jarayon, muammoli vaziyatni qal qilishda esa – fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli – amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to‘g‘risida nazariy metodologik muammolarni o‘rtaga tashlaydi. P.Y.Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur bu – orientirlash – tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya‘ni orientirovka – jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda subyektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o‘rganishdan iborat deb tushuntiriladi. P.Y.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o‘zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A.V. Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish oldindan payqash xususiyatlari alohida ta‘kidlab o‘tiladi. Yuqoridagi mualliflardan farqli o‘laroq, A.V. Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dalillab ko‘rsatadi.

Shuningdek, tafakkur atrof- muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Ta'rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari va funksiyasi sanab o'tilgan, ya'ni so'z (fikir) bilan, umumlashtirilib, bevosita, ijtimoiy sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish, jarayon, faoliyat va boshqalar. Bizningcha, berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda tafakkur predmetini aniqlashda harakat qilinsa, maqsadga muvofiq ish qilingan bo'lar edi. Tafakkur predmetini aniqlashga harakat qilinsa, maqsadga muvofiq ish qilingan bo'lar edi. Tafakkur predmetini belgilash mashaqqati uning murakkab bilish jarayoni ekanligini yana bir karra tasdiqlab turibdi. Ma'ruza va dars jarayonlarida tafakkurning analiz qilish operatsiyasi juda muhim rol o'ynaydi. Insonga savod o'rgatish bola nutqini analiz qilishdan boshlanadi. So'ng bu holat matni gaplarga, gaplarni so'zlarga, so'zlarni o'z navbatida bo'g'inlarga, fonemalarga, ularni esa tovushlarga bo'lish singari aqliy faoliyat bilan asta – sekin almashtiriladi. Arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya, fizika yoki O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisod, politologiya, psixologiya va bohqa fan asoslarini o'rganish muammoli topshiriqlarni, masalalarni yechish ham analiz qilishdan boshlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan motor yoki boshqa qismlarning rolini chuqur tushunish uchun yolg'iz analizning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki tarkibiy qismlarni birlashtirilgan holda bir – biriga ta'sir qilib turgan motor vamashinani butunligicha olib tekshirgandagina, uning motor yoki mashina ekanligini angalash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil tafakkur deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar "tayyor mahsulotlar quli"ga aylanadilar, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql – zakovatli inson bo'lisho'rniga kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala odam to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi, uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lan va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkurning ixchamligi deganda, muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi (plani) mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa,, nomutanosiblik hosil bo'lsa, hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat, fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog'imiz shart. Fikrning operativ jihatdan, tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishiga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, "Tanlab imtihonda avval

g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z –o'zidan “birdaniga” xatosini anglab, to'g'ri javob bera boshlashi” kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, informatsiyalarni tinglovchilarga xato va kamchiliksiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga muvaqqat bog'lanishlarning tezligi turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqori tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu- moddiy voqelikdagi muhim jihatlarini ajratib, mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan rezerv va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu rezervlarni to'la ochish, fan va texnika progressini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, progress inson aql – zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnika progressi insonshumoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Kreativ tafakkur jarayonida inson masalani hal qilishda o'zgalarning yordamiga tayanib ish ko'radi. Ayrim hollarda masala yoki topshiriqni hal qilish, yechish paytida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqotdagi voqea bo'ladi. Muloqot esa fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi. Fan va texnika taraqqiyoti tarixining ko'rsatishiga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsafiy mushodalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning aksariyati ulug' kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida, kollektiv tafakkuri natijasi tariqasida dunyo yuzini ko'rgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlarning aql – zakovati durdonalarining tizimlashishi natijasida voqelikni yangilik elementi bilan boyitadi, xolos.

Kreativ tafakkur bilan masala yechish o'zaro uzviy bog'langan bilish jarayonlaridir. Lekin, ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farqlab olish maqsadga

muvofiqdir. Jumladan, masalani hal qilish, yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, chunki bunda hech qanday o‘zgacha yo‘l bo‘lishi mumkin emas va bo‘lmaydi ham. O‘z navbatida tafakkur masala yechish vaqtidagina vujudga keladi. Shu boisdan yangi masala qo‘yishda, yangi muammolarni barpo qilishda, ularning inson tomonidan (o‘zgaralar) anglab yetishida va boshqa hollarda asosiy rol o‘ynaydi. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat masala (muammo) hal qilish bilangina bog‘liq bo‘lmasdan, balki bilimlarni egallash, tekstlarni tushunish, narsa hamda hodisalarni tanqidiy jihatdan analiz qilish va hokazolarda ham juda zarurdir.

Xo‘sh, muammoli vaziyat bilan masala yechishning o‘zaro tafovuti bormi? Odatda muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo‘lgan, noma’lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo‘r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali muammoli vaziyatdan kelib chiqib, uning bilan mahkam aloqa qilib hukm suradi. Tafakkur muammoli vaziyatni analiz qilish natijasida uni ravshanlashtirib, yechish mumkin bo‘lgan masalaga aylantiradi. Demak, bu yerda o‘zaro mustahkam bog‘langan fikr yuritishning berk zanjiri vujudga keladi: Tafakkur – muammo masala. Zanjirning har bir zvenosi hamisha va beto‘xtov bir – birlarini taqazo etadi.

Xulosa qilib aytganda, insonning ijodiy tafakkuridagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, urf – odatlar, an’analar va munosabatlar kelajak avlodning ma’naviy merosini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R., Rixsiyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklarining yangi avlodiga qo‘yilgan talablar. –T.: 2001. 28 – bet.
2. Seyitxalilov Ye., Abdullayev Sh. O‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – milliy dastur talabi // Xalq ta’limi jurnali, 2001, 1-son. 13-20-betlar.
3. Sharipov Sh. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. Ped. fan. nom. .. diss. avtoref.-T.2000. 20-bet.
4. Qosimov F.M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar ustida ishlash. Buxoro. 2005. 138 – bet.
5. Hamroyev A.R. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil yetish. Pedagogika fanlari nomzodi. Diss. –T.2005. 141 – bet.
- Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkilotishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori ... diss. –T.: 2003. 280 – bet.
7. Adizov B.R. Ijodiy ta’lim jarayoniga tizimli yondashuv// Xalq ta’limi jurnali, 2001.4-son. -102-104-betlar.